



BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi

TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonining muammolari va imkoniyatlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Bank sektorida raqamli transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlari, ulardan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik hamda kiberxavfsizlik, infratuzilma va raqamli savodxonlik bilan bog‘liq asosiy muammolar ochib beriladi. O‘zbekiston bank sektoridagi real statistik ko‘rsatkichlar xalqaro tajriba bilan taqqoslanib, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar haqida takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, bank xizmatlari, iqtisodiy samaradorlik, kiberxavfsizlik, moliyaviy texnologiyalar, raqamli savodxonlik.

So‘nggi yillarda dunyo moliya sektorida raqamlashtirish tendensiyasi keskin sur‘atlarda rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar rivoji bank xizmatlarini taqdim etish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirib, mijozlar bilan ishlashda tezlik, qulaylik va shaffoflikni ta‘minlash imkonini bermoqda. Jahon bankining 2022-yilgi ma‘lumotlariga ko‘ra, global miqyosda bank operatsiyalarining 70% dan ortig‘i raqamli kanallar orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston bank tizimida ham ushbu jarayon faol kechib, masalan, 2020-yildan 2024-yilgacha mobil banking foydalanuvchilari soni 4,2 milliondan 11 million nafarga yetgani kuzatilgan.² Shu bilan birga, raqamlashtirish faqat imkoniyatlar yaratmay, balki yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Bank xizmatlarini raqamlashtirish imkoniyatlari:

Iqtisodiy samaradorlik va xarajatlarni qisqartirish, raqamli xizmatlar orqali banklar filiallar sonini optimallashtirib, xodimlar sonini qisqartirib, hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish orqali operatsion xarajatlarni 25–30% gacha kamaytirishga erishmoqda. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki yillik hisobotida raqamli xizmatlar ulushi oshishi natijasida operatsion xarajatlar 2020-yildan 2024-yilgacha 21,7% kamaygani qayd etilgan.

Moliyaviy inklyuziya oshishi, Hindiston, Kenya, Estoniya kabi davlatlar tajribasi ko‘rsatganidek, raqamli moliyaviy xizmatlar aholining chekka

² Markaziy bank, 2024 ma‘lumotlari.



hudumlarini moliyaviy tizimga jalb etishda asosiy vositaga aylangan. O'zbekistonda 2024-yilda aholining 68% qismi raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanayotgani bu yo'nalishda yuksak salohiyat mavjudligini ko'rsatadi³.

Innovatsiyalarni rivojlantirish, fintech kompaniyalari bilan hamkorlik, yangi mahsulotlar (onlayn kreditlash, elektron hamyonlar, raqamli identifikatsiya) yaratish banklar uchun yangi daromad manbai ochmoqda. Deloitte (2023) hisobotida ko'rsatilishicha, fintech hamkorliklar daromadlarni 20–25% oshirishga hissa qo'shmoqda.

Mijozlar tajribasining yaxshilanishi, mobil ilovalar kabi raqamli bank xizmatlaridan 24/7 foydalanish, shaxsiylashtirilgan xizmatlar hamda tezkor tranzaksiyalarni ta'minlayabdi. Natijada mijozlar qoniqishi darajasining sezilarli darajada yaxshilanishiga, mobil bank xizmatlarining uzluksiz ishlashi tranzaksiyalar hajmining oshishiga, operatsion xarajatlarning qisqarishiga olib keladi. Bundan tashqari, real vaqt rejimida amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar banklarning likvidlikni boshqarish samaradorligini oshiradi va daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Bank xizmatlarini raqamlashtirishning muammolari. Raqamli bank xizmatlarining barqarorlashuvi va barcha uchun yagona bank usuliga aylanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi: *Kiberxavfsizlik tahdidlarining kuchayishi*. Pul bilan bog'liq masalalarda xavfsizlik eng muhim omil hisoblanadi. Afsuski, xakerlar hanuzgacha moliyaviy muassasalar uchun jiddiy tahdid solib kelmoqda. IBM Security ma'lumotlariga ko'ra, global bank sektorida kiberhujumlar soni har yili 12 foizdan ortib bormoqda. O'zbekistonda ham bu muammo dolzarb, masalan: Markaziy bank 2024-yilgi hisobotida raqamli xizmatlardan foydalanuvchilarining 14 foizi kiberxavfsizlik bo'yicha xavotir bildirganini qayd etgan. Pul bilan bog'liq masalalarda xavfsizlik eng muhim omil hisoblanadi.

Texnologik infratuzilma zaifligi. Ba'zi hududlarda internet qamrovi va sifatining pastligi raqamli xizmatlardan foydalanishni cheklaydi. Jahon banking 2023-yilgi baholashida O'zbekiston internet qamrovi bo'yicha mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichdan 11% past ekanligi ko'rsatilgan.

Huquqiy-normativ muammolar. Innovatsion mahsulotlar uchun yetarli huquqiy baza mavjud emas. Xususan, fintech va open banking platformalari uchun alohida tartibga soluvchi hujjatlar ishlab chiqilmagan, bu esa bozor

³ Markaziy bank, 2024 ma'lumotlari.



ishtirokchilarining faoliyatini cheklaydi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yirik banklarning umumiy operatsion xarajatlarida me'yoriy talablarga muvofiqlik va risklarni boshqarish bilan bog'liq sarf-xarajatlar ulushi 10–15% gacha yetmoqda. Ushbu ko'rsatkich bank sektorida tartibga solish mexanizmlarining murakkablashib borayotgani va raqamli transformatsiya jarayonida risk omillarining ko'paygani bilan izohlanadi. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlarining kengayishi kiberxavfsizlik, ma'lumotlarni himoyalash, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash va mijozlarni aniqlash jarayonlariga qo'yiladigan talablarni keskin kuchaytirmoqda. Mazkur xarajatlar banklar uchun ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, me'yoriy talablarga muvofiqlik va risklarni boshqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, tizimli xatarlarni kamaytirish va regulyatorlar oldidagi ishonchlilikni oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, ushbu xarajatlarning yuqori ulushi banklarning operatsion samaradorligini pasaytirib, sof foyda marjasining qisqarishiga olib keladi. Natijada banklarning rentabellik ko'rsatkichlari, xususan, aktivlar rentabelligi va kapital rentabelligiga salbiy ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bank xizmatlarini raqamlashtirish — bu nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, mamlakat moliyaviy tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston bank sektorida so'nggi yillarda sezilarli yutuqlar qayd etilgan bo'lsa-da, hali ham bir qator muammolar yechimini topishga muhtoj. Shu sababli, bunday vaziyatda banklar uchun open banking va fintech uchun normativ hujjatlarni ishlab chiqish zarur deb hisoblayman, bu orqali biz risklarni minimallashtirish, xalqaro moliyaviy tizimlarga integratsiya qilish va boshqa qulayliklar kabi strategik afzalliklarni yaratadi. Muvozanatli siyosat va texnologik-investitsion yondashuv asosida mamlakatda raqamli moliyaviy xizmatlar sektorini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Yillik hisobot. www.cbu.uz
2. IBM Security (2023). Cost of a Data Breach Report. www.ibm.com
3. Deloitte (2023). Global Fintech Survey. www2.deloitte.com
4. Jahon banki (2023). Digital Financial Services Report. www.worldbank.org
5. UNICEF Uzbekistan (2024). Digital Literacy Overview. www.unicef.org/uzbekistan
6. HDFC Bank Annual Report (2023). www.hdfcbank.com



BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE

